

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2026 Vol. 1

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2026 Vol. 1

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

BOSH MUHARRIR Shuhrat Sirojiddinov
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI Karomat Mullaxo'jayeva
MAS'UL KOTIB Ozoda Tojiboyeva
TAHRIR HAY'ATI Karl Rayxl (Germaniya) Isa Habibeyli (Ozarbayjon) Seyhan Tanju (Turkiya) Almaz Ulvi (Ozarbayjon) Benedek Peri (Vengriya) Vahit Turk (Turkiya) Teymur Kerimli (Ozarbayjon) Eunkyung Oh (Koreya) Nazef Shahrani (AQSh) Boqijon To'xliyev Muhammadjon Imomnazarov Bilol Yujel (Turkiya) Qosimjon Sodiqov Zulxumor Xolmanova Mustafa O'ner (Turkiya) Nurboy Jabborov G'aybulla Boboyorov Kimura Satoru (Yaponiya) Imran Ay (Turkiya) Aftondil Erkinov Nadir Mamadli (Ozarbayjon) Rashid Zohidov Otabek Jo'raboyev Bulent Bayram (Turkiya) Qo'ldosh Pardayev Nodirbek Jo'raqo'ziyev Oysara Madaliyeva Hilola Nazirova

MUNDARIJA	
MATNSHUNOSLIK	
Saidakbar Muhammadaminov Junglarning genezisi va regional xususiyatlari: adabiy to‘plamdan fatvolar majmuyiga qadar	4
Ozoda Tojiboyeva "Favoyid ul-kibar"dagi farqli baytlar xususida	23
Sohiba Madirimova Avaz O‘tar qo‘lyozma devonlari tavsifi	37
Təranə Verdiyeva, Fərhad Mirzəyev Klassik Şərq İrsinin Vizual Təqdimatında Or. 2265 "Xəmsə" Əlyazmasının Yeri və Nizami Gəncəvinin Mədəni Fəlsəfəsi	64
Gulzira G‘iyosiddinova Ojiz devoni qo‘lyozmalari tavsifi	77
LINGVISTIKA	
G‘aybulla Boboyorov Oltinko‘l bitiktoshlari: eski turkcha so‘zlarning o‘zbek tilida saqlanish holati	94
Jo‘ra Xudoyberdiyev Chig‘atoy tiliga oid ayrim mulohazalar	114
Tünzalə İsmayılova XIV – XV əsr qipçaq lüğətlərinə ümumi baxış	135

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

CONTENTS**TEXTOTOLOGY****Saidakbar Muhammadaminov**

The Genesis and Regional Features of Jong Collections: From Literary Anthology to Compendium of Fatwas 4

Ozoda Tojiboyeva

Regarding the Different Couplets in the Manuscript Sources of "Favoyid ul-kibar" 23

Sohiba Madirimova

Description of Avaz O'tar's Manuscript Divans 37

Təranə Verdiyeva, Fərhad Mirzəyev

The Place of the Or. 2265 "Khamisa" Manuscript in the Visual Representation of Classical Eastern Heritage and the Cultural Philosophy of Nizami Ganjavi (Artificial Intelligence-Based Analysis) 64

Gulzira Giyosiddinova

Description of the Manuscripts of Ojiz's Divan 77

LINGUISTICS**Gaybulla Boboyorov**

The Altin-Köl Runic Inscriptions: the State of Preservation of Old Turkic Words in the Uzbek Language 94

Jura Khudoyberdiev

Some Remarks on the Chigatai Language 114

Tunzale Ismayilova

General Overview of 14th-15th Century Kıpçak Dictionaries 135

**MATNSUNOSLIK
TEXTOTOLOGY**

Junglarning genezisi va regional xususiyatlari: adabiy to'plamdan fatvolar majmuyiga qadar

Saidakbar Muhammadaminov ¹

Abstrakt

Mazkur maqolada islom qo'lyozma merosida keng tarqalgan jung to'plamlari tadqiq etilgan. Ushbu atamaning lug'aviy va istilohiy ma'nolarini yoritish maqsadida o'rta asrlardan to hozirgi kungacha yaratilgan lug'atlar tahlil qilingan. Bu turkumga mansub qo'lyozma to'plamlarning geografik tarqalishi hamda o'ziga xos xususiyatlari dunyo qo'lyozma fondlaridagi kataloglar yordamida o'rganilib, ularning, asosan, O'rta Sharq va Kichik Osiyo hududlarida keng yoyilgani aniqlangan. Jumladan, Eron fondlarida saqlanayotgan junglarning repertuari ko'proq forsiy va arab tillaridagi, nisbatan kamroq qismi esa turkiy va urdu tillaridagi matnlardan tashkil topgan bo'lib, ularda, asosan, adabiy mazmundagi asarlar jamlangan. Shuningdek, diniy mavzularga bag'ishlangan kamsonli qo'lyozma jung to'plamlar ham uchraydi. Turkiya fondlaridagi junglar repertuarining asosiy qismini, ba'zi bir istisnolarni hisobga olmaganda, nazmiy va she'riy ijod namunalari tashkil etadi. Maqolaning asosiy qismi Markaziy Osiyo qo'lyozma jo'ng to'plamlariga bag'ishlangan va ularning tarkibi butunlay fiqhiy mavzulardagi fatvolar hamda rivoyat hujjatlaridan iborat ekani ko'rsatilgan. Mazkur junglar, odatda, qozilar va muftiylar tomonidan tuzilgan. Jung majmualarini shakllantirishdagi asosiy mezonlardan biri – ularga amalda bo'lgan shar'iy hukmlar – masoyili ma'mulani kiritish bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan bu turkumdagi qo'lyozmalar Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklariga oid bo'lib, maqolada ularning o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *Jung to'plamlari, katalog, fiqh, fatvo, rivoyat hujjat namunasi, ma'mulot, qo'llanma, Turkiya, Eron, Markaziy Osiyo, Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari.*

¹ Muhammadaminov Saidakbar Abdurashidovich – tarix fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti.

E-pochta: saidakbar.orient@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-6022-4335

Iqtibos uchun: Muhammadaminov, S. A. 2026. "Junglarning genezisi va regional xususiyatlari: adabiy to'plamdan fatvolar majmuyiga qadar". *Oltin bitiglar* 1: 4 – 22.

Kirish

Jung atamasi qo'lyozma manbalarda ko'p uchraydigan to'plam turlaridan biri bo'lib, asosan, turli mualliflarga mansub she'riy parchalar jamlangan majmuani anglatadi (Dehudo 1338/1959, 125). Ayrim tadqiqotlarda jung bayoz bilan qiyoslanadi. Zero, bayoz ham nasriy va lirik parchalardan tashkil topgan to'plamni ifodalaydi (Bayāz-i Tāj al-Dīn Aḥmad Vazīr, 130; Erkinov 2024, 4 – 20). Biroq bunday ta'rif jung tushunchasining mazmunini to'liq ochib bermaydi. Chunki jung nafaqat she'riy antalogiya, balki qo'lyozma an'anasi doirasida shakllangan o'ziga xos to'plam turi bo'lib, u qo'llanish doirasi hamda tarkibiy tuzilishiga ko'ra boshqa adabiy to'plamlardan farq qiladi. Shu bois mazkur maqola jung atamasini muayyan janrlarda cheklamay, uning regional va tarkibiy xususiyatlari asosida tahlil qilishga qaratildi.

Kuzatuvimizga ko'ra, *jung* (جونگ/جنگ) so'zi o'rta asr lug'atlarida, asosan, "katta kema, katta bayoz, safina", "qimorning bir turi" (nav'i az qimor) (Muhammad Husayn, Burhon qoti', 154^a) kabi ma'nolarda kelgan (Abdurashid al-Husayniy al-Madaniy Tattaviy, 120^b; G'ulomulloh Behikhan Siddiqiy al-Honsuviy, 157^b; Jamol Muhammad ibn Qutb Olim Jandiy, 100^a). Mazkur lug'atlarning aksariyatida jungning prototipi sifatida *bayoz* atamasi ko'proq qayd etilgan. Aksariyat u davr lug'atlarida so'zning etimologiyasi, to'plam sifatidagi funksiyasi va tarkibi haqida ma'lumot berilmagan. Biroq, XVII asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan G'ulomulloh Behikhan Siddiqiy al-Honsuviy 1082/1675-yili Hindistonda tuzgan "Ashhar al-lug'at" deb nomlangan forsiy izohli lug'atida esa "*jung*" so'zi safinaning¹ bir turi bo'lib, unda noyob she'rlar, muolajaga oid latifalar, afsunot², ma'junot³ va tarkibot⁴ga doir matnlar jamlangan", deb ta'rif bergan. Demak, u davrga kelib junglar adabiy janrga oid matnlarni o'zida qamrab olgan to'plam sifatida namoyon bo'lgan.

Zamonaviy lug'atlarda bu so'zga yuqoridagi ma'nolari bilan birga "asov tuya", "katta oq dog", "o'yin toshlari", "albom", "jihoz" kabi ma'nolarni berishadi [Yagello 1910, 485; Aslanov 1966, 300, 304; Rubinchik 1970, 445; Gaffarov 1974, 221; Akimushkin 2004, 325]. So'zning etimologiyasi masalasi borasida olimlar o'rtasida yakdil fikr yo'q. Ba'zilar uning kelib chiqishini fors tiliga [Kazimirski

¹ "Safina" arabcha so'z bo'lib "kema" ma'nosini bildiradi. Lekin istilohda bu so'z qo'lyozma to'plamlari turkumi "majmua" ma'nosida qo'llaniladi.

² Sehr, duo, irratsional tabobat usullari.

³ Aralashma dorilar.

⁴ Dorilarning tarkibi va yo'riqnomalari

1860, 340], boshqalar xitoy [Dehudo 1991, 6918; Sayyed ‘Alī Mirāfazlī 1394/2015, 7] yoki turkiy [Doerfer 1967, 6–7; Orhan Şaik Gökay, 1993, 73] tillar bilan bog‘lashsa, ayrim turk olimlari uni yava va malay tillaridagi “Djong” (conk) so‘zidan kelib chiqqani va u Xitoy dengizlarida maxsus turdagi yelkanli kemalarga nisbatan qo‘llanilganligini ta’kidlaydilar [Orhan Şaik Gökay 1993, 73]. Ehtimol, bu so‘zning kelib chiqishiga oid turli fikrlarning paydo bo‘lishi uning ko‘plab Sharq tillariga singib ketishi bilan bog‘liqdir¹.

Junglarning regional xususiyatlari

Junglar Turkiya, Eron va Markaziy Osiyo kabi hududlarda keng tarqalgan qo‘lyozma majmua-to‘plamlarga nisbatan ishlatilgan. Gohida qo‘lyozma majmua-to‘plamlarga *jung*ning muqobili sifatida *safina*, *bayoz*, *kashkul*, *kulliyot* kabilar ham qo‘llanilgan. Bu istilohlarning amalda o‘zaro o‘xshash tomonlari bo‘lsa-da, ularning har biri (tarkibiy tuzilishi, formati jihatidan) o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ayni paytda ushbu majmua-to‘plamlarning har biri regional xususiyatlarga ega va uni quyida O‘rta Sharq va Kichik Osiyo hududlarida tarqalgan *junglar* to‘plami misolida ko‘rib chiqamiz.

Eron junglari

Eronda junglar bo‘yicha olib borilgan zamonaviy tadqiqotlarda ular, asosan, adabiy manba sifatida baholanadi. Mazkur mintaqqa qo‘lyozma kataloglari bilan tanishish jarayonida junglar tarkibida nafaqat adabiy janrdagi matnlar, balki boshqa soha mavzulari ham qamrab olinganiga guvoh bo‘ldik. Eron qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan junglar soni 2000dan ziyoddir [DENĀ III, 1392/2013, 744–996]. Ularning repertuarlarida turli mazmundagi mavzular ko‘proq fors-tojik, arab, turkiy va urdu kabi tillarda berilgan [Fankha 1392/2013, 391–819]. Ko‘plab junglarda fors-tojik va arab tillarida turli shoirlarning nasr va nazmda bitilgan asarlari o‘rin olgan. Shuningdek, hadislar, arab va fors-tojik tillarida duolar, majlis mav‘izalari, arab va fors-tojik tillarida aqoid matnlari, fors-tojik tilida marsiyalar, axloqqa oid kimyo, tasavvuf, tarix, miniatyura, tabobat, riyoziyot va fiqh kabi alohida mavzudan iborat kam sonli junglar ham bo‘lgan [Fankha 1392/2013, 391–819]. Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, junglar nafaqat turli she’rlardan iborat ijod namunalaridan, balki diniy mavzularga oid matn bo‘laklari shaklida ham ko‘zga tashlanadi.

¹ O‘zbek tili izohli lug‘atida ham *jung* so‘zi o‘rin olgan bo‘lib, u “bir o‘rkachli to‘ya” ma’nosida ishlatilgan.

Turkiya junglari

Hozirda Turkiyaning ko'plab qo'lyozma fondlarida junglar borligini elektron kutubxonalar yordamida bilib olish mumkin. Lekin mamlakatning barcha shahar kutubxonalarida saqlanayotgan qo'lyozmalar haqida ma'lumotlar jamlanmasi hali to'liq shakllantiirilmagan. Faqat ayrim kutubxonalardagi qo'lyozmalar haqida ma'lumot beruvchi elektron sayt <http://www.yazmalar.gov.tr> bilan cheklanish joiz¹. Saytda berilgan ma'lumotga ko'ra, Turkiyada 500ga yaqin jung to'plamlari mavjud. Agar qolgan kutubxonlar ham inobatga olinsa, bu raqam ancha ko'payishi muqarrar. U hududda jung so'zi XVI asrdan buyon turli ulamolarning yig'ma fatvolar² to'plamlariga nisbatan qo'llanilganini Hoji Xalifaning (1609–1657) “Kashf az-zunun” asarida ko'ramiz. Xususan, unda 982/1574-yili faqih Sulton Murod fatvolar to'plamini tuzishda Muslihad-din, Muhiy ad-din xalifa, Husayn xalifa, Palamudzoda, Shujo' ad-din, Shukrulloh xalifa, Vali Chalabiy va Mu'id kabi olimlarning **junglari** va Abu as-Su'udning fatvolaridan foydalangani qayd etilgan [Haji Khalifa 1845, 351–352]. Shunday bo'lsa-da, Usmonli Turkiyada jung shaklidagi fatvolar amaliyoti uzoq davom etmagan. Buning sababi – Usmonli turk sultonlarining farmoni bilan tuzilgan *Qonunnoma* va *Majallalar* saltanatning asosiy huquqiy manbayi bo'lgani uchun ham turli ulamolar tomonidan tuzilgan fatvo junglarga ehtiyoj kamaygan [Âkif Aydin 2012, 231–235; Karaman 2012, 309; Karahasanoglu 2011, 95]. Biroq XVIII asrdan boshlab Usmonli Turkiyada junglar endilikda terma she'rlar to'plami sifatida shakllangan bo'lib, keyinchalik ularning ko'lami doirasi sezilarli darajada kengaygan [Doğan Kaya 2007, 189–190]. Mavjud junglarning repertuari bilan tanishganimizda, ularning asosiy qismini nazmiy va she'riy ijod namunalaridan o'rin olgani ma'lum bo'ladi. Undan tashqari, she'r va nasriy bo'laklardan iborat junglar ham bor. Shuningdek, ayrim junglarning tarkibida she'rlar va xalq og'zaki ijodi namunalari bilan diniy mavzudagi matnlar: xutbalar, mav'izalar, hadislar va duolar, mavlud matnlari ham mavjud. Shu bilan birga xalq tabobatiga oid retseptlar, shaxslarning vafoti ta'rixlari, oldi-berdi hisob qaydlari, xalq hikoyalari, tush ta'birlari, xutbalar, mav'izalar, duo va salavotlardan iborat jung to'plamlari ham bo'lgan [Doğan Kaya 2007, 189–190]. Izlanishlar jarayonida fiqhga oid alohida junglarning

¹ Murojaat qilingan davri 2022 va 2023-yillar.

² Fatvo – (arab. – tushuntirish, izoh, hukm, qaror) – islomda mufti yoki ulamolar kengashi tomonidan diniy, huquqiy, siyosiy hamda ijtimoiy masalalarda beriladigan qaror, hukm yoki izoh. Islom huquqi manbalarida fatvo atamasi muayyan voqea-hodisaning yechimi sifatida berilgan shar'iy hukmga nisbatan ishlatiladi.

hozirgi kunga qadar ikkita nusxasi aniqlandi. Biri – Manisa viloyati xalq kutubxonasida – qozilik hujjatlari namunalaridan iborat Muftiy Charubning jungi bo'lsa [Muftiy Charub Jungi, 209^b], ikkinchisi – Baliqesir viloyati xalq kutubxonasida sobiq Salomiki viloyatining Serroz shaharchasidagi qozilik mahkamasiga tegishli jungdir¹.

Markaziy Osiyo junglari

Markaziy Osiyoda XV asr ikkinchi yarmidan e'tiboran jung atamasi "turli mazmundagi matnlar jamlangan majmua yoki daftarni" anglatuvchi termin sifatida adabiy va ilmiy muhitda mustahkam o'rin ola boshlagan. Alisher Navoiy o'z asarlarida "jung" so'zini uch xil – kema, yuk tuya va daftar ma'nolarda qo'llagan. Masalan, *Farhod va Shirin* dostonida, *Ikki yuz jung hadsiz har biri keng / Falak jungini har bir tutmayin teng* baytida jung so'zi "kema" ma'nosida qo'llangan bo'lsa, boshqa o'rinda *Balki har tarix jungin safha-safha axtarib daryozada jumlasida jung* so'zi "tarixlar yoziladigan daftar" ma'nosida ishlatilgan (Fozilov 1983, 603). Bu misollar Navoiy davrida jung so'zi, tarixiy matnlar jamlangan to'plam yoki daftarga nisbatan ham qo'llanilganini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyoda qo'lyozmaga nisbatan *jong* atamasi qo'llanilishining ilk va nisbatan aniq misollardan biri – Sharaf ad-din 'Ali Yazdiyga mansub, 867/1463-yilga oid *Monšdāt* qo'lyozma asari nusxasida uchraydi [Sharaf ad-din 'Ali Yazdiy 57^b–61^b]. Ushbu nusxada Xoja Rukn ad-din Mas'ud Sa'diy tomonidan Ibrohim Sulton ibn Shohrux ibn Temurning o'g'li Ismoil uchun tuzilgan *jung* bor. Uning muqaddima qismida (61b-varaq) mazkur *jong* tarkibiga kiritilgan va jami 50 ming bayt se'rni tashkil etgan janrlar ro'yxati keltirilgan: g'azaliyot, tarji'ot, muqattaot, ruboiyot, muammaot va masnaviyot. Bu holat Markaziy Osiyoda ham junglar Temuriylar davrida ilk bor she'riy asarlar to'plamiga nisbatan qo'llanganini ko'rsatadi.

Kuzatishlar natijasiga ko'ra, XVII asrdan boshlab Markaziy Osiyoda jung so'zi, asosan, yig'ma fatvolar to'plamiga nisbatan ishlatila boshlangan. Bunday junglar respublikamizning ko'plab fondlarida saqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti (bundan keyin O'zRFASHI) qo'lyozmalar fondida 100 dan ortiq *jung* to'plamlari saqlanadi. Qizig'i, ular Sharq qo'lyozmalari tavsifi (SVR) katalogiga

¹ Unda 1256-1294/1840-1877-yillar oralig'idagi qozilik hujjatlari jamlangan. Balikesir viloyati xalq kutubxonasi qo'lyozmasi inv. № 116. Xati ta'liq. Umumiy hajmi: 144 varaq. Qo'lyozmaning 73b varag'ida riqo xatida Sulton Abdulhamidning taxtdan chetlatilishi haqida fatvo nusxasi berilgan.

jung sifatida kiritilmagan [SVR, 1957]. Sho'rolar davri sharqshunos olimlari bu turkumdagi to'plamlarning tuzilish mohiyatiga emas, balki unda kelgan hamroh asarning (Muxtasar al-viqoya) o'zi bilan cheklanganlar. Buni o'sha davrda islomiy ilmlarni keng qamrovli tadqiq etishga qo'yilgan cheklovlar bilan ham izohlash mumkin.

Jung to'plamlari O'zR FA SHI fondiga turli kutubxonalardan, asosan, Buxoro shahri Markaziy kutubxonasi hamda shaxsiy kolleksiyalardan kelib tushgan. Ayni paytda O'zbekistonning boshqa qo'lyozma fondlari va shaxsiy to'plamlarida ham mazkur jung qo'lyozmalari va ularning litografik nashrlari mavjud [Jung, Qo'lyozmalar: № 6, 75, 27822, 10838/II; 1608341, 87555; 1134; 251/I, 261/II, 255/X; 1134; 544-45, 559, 583, 597, 636, 643, 717, 727, 745, 836, 544-45; 16]. Mahalliy junglarning litografik nashrlari Rossiya va Qozog'iston davlatlari kutubxonalarida saqlanmoqda (Sheglova 1975, 284; Muminov 2021, 119). Bu holat junglarning keng geografik hududda muomalada bo'lganini hamda ularga bo'lgan ehtiyoj, avvalo, fiqhiy-amaliy masalalarni hal etish bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo junglari haqida xorij tadqiqotchilari diqqat nazariga tusha boshladi. Xususan, Yurgen Paul o'z maqolasida [Durand-Guédy, Paul 2023, 359-392] Buxoro xonligida tuzilgan ikki jung to'plamini tahlil qilib, ular asosida junglarning tarkibiy va funksional jihatdan o'zaro farq qilishi, ular sud-huquq tizimida faoliyat yuritganlarning (muftiy va qozi)¹ **shaxsiy daftari** bo'lgani haqidagi tezisni ilgari surgan. Shuningdek, u "Markaziy Osiyoning junglari betartib va pala-partish tuzilgan va ulardan boshqalar foydalanmagan", degan xulosaga keladi. Amerikalik olim Jeyms Piket jungni qayd daftari (notebook) yoki turli mavzularni o'z ichiga olgan qayd daftari sifatida (notebook of miscellany) sifatida ko'radi [Pickett 2020, 92, 112, 117, 156; Bhalloo and Ishkawari 2024, 329-330].

Markaziy Osiyo junglari bo'yicha bildirilgan yuqoridagi fikrlar munozarali. Avvalo, olimlar qozi askar Sayyid Qamarning "Jung"i deb e'tirof etgan to'plami, aslida jung emas. Bu to'plam Sayyid Qamarning uzoq yillar davomida qo'li ostidagi fiqh bilan birga boshqa mavzular (riyozot, tabobat, biografik ma'lumotlar) ga oid materiallarni bir yerga to'plagan majmuasi hisoblanadi. Shu bois S.G'ulomov tomonidan ilgari surilgan ta'rifga muvofiq, uni

¹ Qozi - (arab - "tayin qiluvchi, hukm chiqaruvchi) musulmonlar amaldor-hakamining umumiy qabul qilingan nomi, hukmdor tomonidan tayinlanib, shariat asosida sudlovni bajaradi.

“Sayyid Qamar to‘plami (kolleksiyasi)” deb atash to‘g‘riroq bo‘ladi [G‘ulomov 2012, 143–145]. Ikkinchidan, muayyan qo‘lyozma jungida mavzularning “betartib va pala-partish qilib berilishi” barcha junglarga xos umumiy xususiyat sifatida qabul qilinmasligi lozim. Ayniqsa, bugungi kunda O‘zR FASHIda saqlanayotgan jung qo‘lyozma to‘plamlarining ko‘pida asosiy fiqhiy mavzularning muayyan tizim, ichki mantiq bilan tartiblanganligi kuzatiladi. Uchinchidan, mavjud jung to‘plamlarida muhrlarning mavjudligi, ulardan asrlar davomida bir necha shaxs foydalanganini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyo hududida saqlanayotgan jung qo‘lyozmalarining salmoqli qismi mazmunan an‘anaviy fiqhiy adabiyotga xos mavzularni o‘z ichiga oladi. Ushbu junglarda ibodat va muomalot masalalari, asosan, xanafiy mazhabi qoidalariga muvofiq bayon qilingan bo‘lib, bu holat mintaqa fiqhiy an‘analarining barqarorligi va uzviyligini aks ettiradi. Junglar, asosan, yurtimizda keng tarqalgan muayyan fiqhiy asar (ko‘p holatda Muxtasar al-viqoya yoki Fatovoyi Aminiya) matni bilan birga shakllantirilgan. Bu asar matnidan o‘rin olgan har bir mavzuga mos va parallel ravishda matn sharhlaridan iqtiboslar va ko‘plab mahalliy fiqhiy va fatvo asarlaridan terib olingan ko‘p takrorlanadigan masalalarga oid fatvolar, shuningdek, ayni davr talabi bilan tuzilgan rivoyat hujjatlar qo‘shilgan holda junglar to‘plamlari shakllantiriladi.

Jung majmualarni tuzishda asosiy mezonlardan biri – unga amalda bo‘lgan shar‘iy hukmlarni (*masoyili ma‘mula*) kiritish bo‘lgan. So‘nggi asrlarda ushbu turdagi masalalarni *masoyili ma‘mula*, ya‘ni amalda tatbiq qilingan va o‘zgarmas masala mavqeyiga ega bo‘lgan jiddiyroq hukmni taqozo etgan masalaga nisbatan ishlatilgan [Mirzayev 2022, 220]. Bu masalani yana kengroq anglash uchun XX asrning ikkinchi yarmida o‘z zamonasining ulamosi Mir Rabi‘ ibn Mir Niyozxo‘ja Husayniyning “Risolayi Rahmoniya” asarida *masoyili ma‘mula* bo‘yicha ta‘ri iga e‘tibor qaratamiz: “Ma‘lum bo‘lsinki, *masoyili ma‘mula* deganda, bir muftiy muayyan bir masalani yozib, unga tegishli shar‘iy dalilni keltirib, so‘ng o‘z muhrini bosgan bo‘ladi. O‘z zamonasining munosib va amaldagi qozisi mazkur masaladan kelib chiqib, hukm qilgan bo‘ladi. Natijada bu masala *ma‘mula* (amal qilingan) masala darajasini oladi va to qiyomatga qadar o‘zgarmas masalaga aylanadi (Mir Rabi‘ ibn Mir Niyozxo‘ja Husayniy, 403^b). Ayrim jung to‘plamlari nomida “ma‘mula” degan so‘z ham qo‘llaniladi. Masalan, XVII asrda yashagan muftiy Ibadulloh ibn Xoja Orifiy al-Buxoriyning jung to‘plami “Jami’ al-ma‘mulot” nomi bilan, shuningdek, muftiy Muhammad Ma‘ruf ibn Mulla Orif ibn Mulla

Poyande Muhammad al-Xustiyning jung to'plami esa "Ma'mulot al-mashhuriya" nomi bilan yuritilgan (Muhammad Ma'ruf, Ma'mulot al-mashhuriya (Jung)).

Bu junglarning yuzaga kelishini bir qancha omillar bilan izohlash mumkin. Xonliklar davriga qadar fiqh sohasida turli mavzu-masalalarda ko'plab asarlar yaratildi. Ular matn, sharh, fatvo va rivoyatlar to'plamlari ko'rinishida edi. Endilikda ulamolar qozilik instituti vakillaridan shariatning amaliy tomoni bilan muttasil mashg'ul bo'lgan qozi va muftiylar uchun o'zida ham matn, ham fatvo va rivoyatlarni o'zida qamrab oluvchi to'plamlarga ehtiyoj sezildi. Bu talabni jung to'plamlari bajargan. Chunki jamiyatlardagi kishilarning ba'zilar biror-bir fiqhiy asarning matnini bilsa, boshqalari fatvolardan yaxshi xabardor bo'lgan.

Umuman olganda, xonliklar davri jamiyati a'zolari shariatning umumiy normativ qonun-qoidalaridan yaxshi xabardor bo'lganlar. Lekin shu bilan birga, voqelikda (hayotda) ilgari kuzatilmagan ishlarining sodir bo'lishi, ularga yetarlicha sharh berilmaganligi hamda mo'tabar manbalarda (matn, sharh va fatvolarda) bu kabi ijtimoiy masalalarga yetarli javob topilmasligi bois, ayni zamon ulamolari tomonidan ularga bitilgan javoblar bo'yicha ma'lumotlar bazasini tashkil qiluvchi majmua Movarounnahrda junglar deb yuritilgan.

Junglarning tuzuvchilari, asosan, a'lam, muftiy va qozilar bo'lib, ular jamiyatdagi diniy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va maishiy masalalardan yaxshi xabardor bo'lishgan va qaysi fiqhiy masalani qayerda va qachon qo'llash mumkinligini yaxshi bilishgan. Ular aholi o'rtasida yuzaga kelgan turli muammolarni hal qilishda, avvalo, "mo'tabar manbalar" (*al-kutub al-mo'tabara*)dan¹ o'rin olgan fiqhiy hukmlarga hamda o'tgan yoki o'z zamonasining ko'zga ko'ringan a'lam va muftiylari tuzgan fatvolarga tayanib ish yuritishgan. Ana shu fiqhiy hukmlar, tuzilgan fatvo va rivoyat hujjatlar (Isogay 2001, 262) jamlanib, to'plamlarga (junglarga) aylanib borgan. Tajribali muftiy va a'lamlar o'zlaridan keyingi qozixona mutasaddilari² uchun yangi tahrirdagi *jung* majmualarni ham tuzib borishgan. Bu holat Movarounnahrda junglarni tuzish tizimli ravishda amalga oshirilib borilganini ko'rsatadi. Natijada, bunday jung majmualari nafaqat alohida shaxslarning amaliy faoliyatiga xizmat qilgan, balki

¹ "Mo'tabar manbalar" deyilishidan murod ulamolar o'rtasida e'tirof etilgan fiqhiy kitoblarga qarab hukmlar darajasi belgilangan. Bu haqda batafsil, shu bobning ikkinchi bandida to'xtalindi.

² Bu yerda qozixona mutasaddilari deganda, ko'proq qozi va muftiylar nazarda tutilgan.

qozilik amaliyotida me'yoriy qo'llanma vazifasini bajarib, huquqiy tajribaning avloddan-avlodga uzluksiz uzatilishini ta'minlagan.

O'zR FASHI fondida saqlanayotgan ko'plab jung to'plamlarini hududiy jihatdan o'rganganimizda, ular Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklariga tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi (<https://ifeac.hypotheses.org/3217/20.02.2026>).

Ularning katta qismi Buxoro xonligiga oid. Uch xonlikka oid junglar orasida katta farqlar kuzatilmaydi. Sababi – bu uchta xonlikni o'zaro bog'lab turuvchi bu xanafiylik mazhabidir. Shuningdek, Buxoro shahri madrasalari tahsil olish barcha tolibi ilmlarning katta orzusi bo'lgan va ayni paytda, Buxoro ta'lim tizimi boshqa xonliklar uchun bosh mezon hisoblangan [Muxammadaminov 2021, 481–487]. Junglardagi o'zaro farqlar esa, asosan, ularda berilgan ma'lumotlarning ko'lamidagina ko'rinadi. Quyida junglar mualliflarini identifikatsiya qilish, qayerda tuzilganini aniqlash orqali ular xonliklar doirasida – ajratib o'rganiladi va har bir xonlikdagi jung to'plamlarining o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib beriladi.

Buxoro xonligi junglari

Buxoro xonligida tuzilgan ilk junglardan biri XVII asrda Muhammad Sharif Buxoriy tomonidan tuzilgan [Muhammad Sharif al-Buxoriy, Jung, 173^a]. U to'plam Mir Abu al-Fazl ibn Mulla Xoja Buxoriy tomonidan ramazon oyining 14-kuni 1039/1630-yilning 27-aprelida ko'chirib tugatilgan (Muhammad Sharif al-Buxoriy, Jung, 728^a). Aynan ushbu jung to'plami nusxasi asosida ba'zi bir o'zgartirishlar bilan boshqa jung to'plamlari tuzilgan. Jumladan, Muhammad Sharif Buxoriyning o'g'li Muhammad Shoh al-muftiy al-Husayniy al-Buxoriy, Mir Amir Boqiy [Qo'lyozmalar. № 4782, 4929]. Shuningdek, muftiy Ibadulloh ibn Xoja Orifiy al-Buxoriy, Muhammad Ma'ruf al-Xustiy, Mir Habibulloh b. Qozi Mirjalol al-Husayniy (XVII asr) kabilarning junglari Buxoro amirligida keng tarqalgan va ahamiyatga molik to'plamlar hisoblanadi (Qozi Ibadulloh. Jomi' al-ma'mulot (Jung)). Zero, Ibadulloh ibn Xoja Orifiy al-Buxoriyning (XVIII asr) ko'plab fatvolari Buxoro ulamolari tomonidan e'tirof etilgan. Chunki unda podshoh yeri va undan foydalanish misolida yer-mulk masalasi ko'tarilgan, tasavvufdagi ibodat marosimlari fiqh nuqtayi nazardan batafsil yoritilgan. Shuningdek, tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish bo'yicha ulamolarning bahs-munozaralari Buxoro jung to'plamlaridan o'rin olgani diqqatga sazovordir.

XX asrning boshiga kelib Buxoro amiri Abdulahad Bahodurxon (1885–1910) tashabbusi bilan “Taxtiminoriy Qozikalon” nomi bilan

tanilgan, Buxoroning qozilar qozisi Mirzo Inoyatulloh¹ va uning o'g'li muftiy askar Porsoxo'ja² zamonida chiqarilgan fatvolar birlashtirilib, jung to'plamining litografiyasi nashr etildi (*Jung*, Litografiya. №6550). Mazkur nashr jungida haj bilan bog'liq masalalar ba'zi suratlar (Ka'ba va matof Xatim hamda Maqomi Ibrohim joylashgan nuqtalar va hokazo) bilan batafsil bayon qilinishi haj safarining yengillashgani bilan bog'liq bo'lishi (poyezd va kemalar orqali borish yo'llari yo'lga qo'yilgani), shuningdek, qul, jihodga doir boblarning tushirib qoldirilishi bu davrga kelib Rossiya imperiyasi tasarrufida bo'lgan xonliklarning ijtimoiy va siyosiy hayotida o'z ahamiyatini yo'qotganligi bilan bog'lash mumkin.

Xiva xonligi jung to'plamlari

O'zR FASHIda Xiva xonligiga doir junglar ham mavjud, lekin ularning adadi Buxoro xonligi junglariga qaraganda ancha kam. O'zR FASHIdagi junglarni o'rganish jarayonida Xiva xonligining a'lam Muhammad Rasulning jungi aniqlandi (Muhammad Rasul a'lam, *Jung*). U jungni taxminan 1296/1878-yillarga qadar yozib borgan. Undagi fiqhiy masalalar arab, fors, gohida turkiy tillarda bayon qilingan. Qo'lyozmadagi yozuvlar bir-biridan farq qiladi (och yoki to'q rangdagi siyohlar, betartib shaklda mayda va qalin yozuvlar, ayrim varaqlar oralig'iga turli shakldagi ko'plab qog'ozlar yelimgan). Bu esa, to'plamni muallif yillar davomida turli sharoitlarda to'ldirib borgan, degan xulosaga kelishga asos bo'ladi. Fikrimizcha, to'plamni qozilik ishlarini yuritish uchun qo'llanma sifatida a'lamning o'zi tuzgan. To'plam "Nikoh"dan boshlanib, "Vasiyat"ga qadar 43 bob (kitob)ni o'z ichiga olgan. *Ov, jihod, jonzot so'yish va qurbonlik qilish, qulni ozod etish* kabi boblarda masalalar kam yoritilgan. Ayrim mavzularning nomi esa faqat varaqda qayd etilgan, xolos. Masalan, *Topib olingan bola* (لقيط) bobi varaqlari ochiq qolgan. Ehtimol, o'sha davrdagi qozilar bunday masalalarga kamdan-kam to'qnash kelgandirlar. Ehtimol, bunga o'xshash masalalar urf-odatlar orqali ham yechilgandir. Mazkur to'plamning ikkinchi nusxasi 1888/1305-yili Xorazmda ko'chirilgan va hozirda O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi (Muhammad Rasul a'lam, *Jung*).

¹ Inoyatulloh Qozi Kaloni Taxtiminoriy (vaf. 1273/1856–59-y.) Buxoro amiri Muzaffarxon (1824–1885) davrida qozi kalon bo'lgan.

² Muhammad Porso Sadr muftiy askar ibn Mir Inoyatulloh qozi kalon Taxtiminoriy – Buxoro amiri Muzaffarxon davrida muftiy askar bo'lgan. U 1286/1869-yili xoriждан elchilik vazifasini o'tab qaytayotib vafot etgan. Bu shaxs haqda to'liqroq ma'lumot Sayyid Qamarning "Majmua" asarida keltirilgan. O'zRFASHI. Qo'lyozma № 2588. – V. 246 b.

Xorazmda tuzilgan navbatdagi jung “Rojji” laqabi bilan tanilgan xorazmlik qozi Muhammad Yusuf Maxdumning “Junggi mutanavviy” deb nomlangan to‘plamidir (Qozi Muhammad Yusuf, *Junggi mutanavviy*). Mazkur majmua qozi Muhammad Yusuf Maxdum dastxati bilan ko‘chirilgan. Jung tarkibida fors, arab va turkiy tillarda yozilgan 40ta risola bor ekanligi aniqlandi. Mazkur qo‘lyozma jungining fiqhga oid qismidan *Fiqhiy istilohlar lug‘ati* (41^b–53^b), *al-Ma‘mulot al-mashhuriya* (“Amalda bo‘lgan mashhur rivoyatlar”) (69^b–78^b), hamda kalom bilan bog‘liq *Mullo Oxund Umarning Xurosondagi “adashgan” mazhab tarafdorlariga javob risolasi* (79^b–91^b) o‘rin olgani diqqatga sazovordir. Bizni qiziqtirgan mazkur *al-Ma‘mulot al-mashhuriya*ning musannifi Ashtarxoniylar (1601–1757) davrida ko‘zga ko‘ringan Buxoroning a‘lami Muhammad Ma‘ruf ibn Mullo Orif ibn Mullo Poyondiy Muhammad al-Xustiydir (Muhammad Ma‘ruf, *al-Ma‘mulot al-mashhuriya*). Demak, Buxoro jung to‘plamlari Xiva xonligida tuzilgan junglarga manbaviy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Xiva xonligida tuzilgan junglarning tili va bayon uslubi qulay. Ularda fiqhiy masalalarning mo‘jaz bayoni keltirilgan. Xiva xonligida tuzilgan junglarda mualliflar mahalliy manbalar bilan birga Usmoniylar sultonligi hududida yaratilgan fiqhiy asarlardan ham foydalanganlar. Ular orasida Muhammad ibn Ali ad-Dimashqiy al-Xaskafiyning (vaf. 1088/1677-y.) *Durr al-muxtor fi tanvir al-absor* va Abu Sa‘ud Xamaviyning *Sharhi ishboh* kabi asarlaridan hamda Usmoniylar davlati muftiysi Abu Su‘ud Afendi (1490–1574) ning fatvolaridan iqtiboslar keltirilgan. Mazkur iqtiboslar, asosan, iqtisodiy masalalar (vaqf, savdo) bilan bog‘liq bo‘lib, bu holatni XIX asrdan boshlab mintqa iqtisodiy hayotida sezilarli darajada o‘zgarishlar yuz bergani bilan izohlash mumkin. O‘z navbatida bu holatlar an‘anaviy qonunchilik sohasiga ham ta‘sir etganini kuzatishda yordam beradi.

Qo‘qon xonligi junglari

Qo‘qon xonligi (1709–1876) junglari Buxoro junglaridan struktura va tarkibiga ko‘ra deyarli farq qilmaydi. Olib borilgan izlanishlar jarayonida O‘zR FASHI fondidan hozircha Qo‘qon xonligida tuzilgan uchta jung qo‘lyozma nusxasi aniqlandi. Ular 8388, 12713 va X. S. 6824 raqamlari ostida saqlanadi. Shulardan 8388 raqamli jung nusxasi muftiy, rais Xudoyor b. Mulla Omonqul tomonidan 1261/1845-yili tuzilgan. Shundan so‘ng – oradan 40 yil o‘tib bu nusxa Toshkent shahri Shayxontohur qozisi Muhammad Sharifxoja

ibn Podshohxoja Umariy Shayxontohuriyning ko'rsatmasi bilan muftiy Muhammad Qurbon tarafidan 1303/1885–86-yili to'ldirilgan [Xudoyor b. Mulla Omonqul, *Jung ma'a Muxtasar al-viqoya*, 185^b]. Ushbu jungning muhim ahamiyati shundaki, unda tuzuvchi muftiy Xudoyor ibn Mulla Omonqul xonlikda bo'lib o'tgan siyosiy voqealar (etnik guruhlar o'rtasidagi kurashlar) hayotiga salbiy ta'sir etgani haqida hikoya qiladi. Bndan tashqari, jo'ngdan boshqaruv hokimiyat bilan bog'liq ayrim fatvolar ham o'rin olgan. Masalan, bir musulmon mamlakati sultoni boshqa musulmon davlatiga zo'ravonlik bilan kirib jang qilishi qat'iyman etilishi va bunday ishlar fitnaga tenglashtirilishi haqida so'z boradi.

Shuningdek, Buxoro xonligi ulamolarining fatvolari Qo'qon xonligi junglarida aks etgan. Masalan, Sulton yeridan foydalanish masalasi bo'yicha shayboniylar davrida Samarqand muftiysi bo'lgan Hazrat Mavlono Kalonning fatvosidan keng foydalanilgan. Qo'qon xonligi jung to'plamlarida fiqhda o'zaro almashtirish, bir-birining o'rnini bosishi mumkin bo'lgan mol "misli", o'zaro almashtirish mumkin bo'lmagan mol esa "qiyomiy" deb atalishi haqida so'z yuritilib, ko'plab mol-mulk nomlarini jadval shakliga solib keltirilgan (Mullo Xolmuxammad, *Jung*, 2^b). Bu holat xonlikda insonlar o'rtasida savdoda mol-mulk bilan muomala qilishda huquq masalalarining qay darajada yo'lga qo'yilganini namoyish etadi. Qo'qon xonligining qadimiy junglaridan biri, bu – 1115/1703-yili avgust–sentyabr oylarida yozib tugatilgan Mullo Xolmuhammad ibn Mullo Ortiq al-Marg'iloniyning jungidir. Mazkur jung to'plamida an'aviy fiqhiy asar matni ("Muxtasar al-viqoya" asari) bilan birga unda ko'plab parcha mavzular, jumladan, Mavlono G'avs ul-a'zam, ya'ni Abdulqodir Jiloniy (471/1078–561/1165) asos solgan Qodiriya tariqati xatmi duosi, tassavufda murid bilan murshid o'rtasida munosabatni qurish bo'yicha yo'l-yo'riqlar rivoyat hujjati namunasi (Mullo Xolmuhammad, *Jung*, 4^b), shuningdek, so'fiy amaliyotlar (zikr, samo'), bid'at turlari haqida ham so'z yuritiladi. Kitobning boshi va oxirida qozilikka oid zarur hujjat namunalariidan sijil, mahzar, vasiqa va da'vo hujjatlari namunalari ilova qilingan (Mullo Xolmuhammad, *Jung*, 15b-16b, 220a, 275b, 240b-247a).

Qo'qon xonligida tuzilgan yana bir jung to'plami nusxasi 10-ramazon 1262/1846-yil 31-avgustda Namangan shahrining Olimuruvvat (الامروءات) madrasasida Falon ibn Falon kotib tomonidan ko'chirilgan (*Jung ma'a Muxtasar al-viqoya*, 356^a). Mazkur jung to'plamining tuzuvchisi noma'lum bo'lsa-da, lekin unda "Muxtasar al-viqoya" asar matni va terma sharhi, mavzular orasiga tikilgan

qo'shimcha varaqlarda turli fiqhiy asarlardan iqtiboslar, shuningdek, fors tilida ko'plab turli mavzudagi masalalar berilgan. Jumladan, Abdulqodir Jiloniyning istixora namoz o'qish usuli (tariqa) haqida bayoni, aqidaviy masalalardan – tavhidning to'rtta martabasi, g'assolning mayitni yuvish yo'riqnomasi va mayit uchun atalgan ahdnoma, ahli mansab va faqihlar darajasi, podsholarga itoat etish, olimni tahqirlash haqidagi fatvo, Alining munojoti kabi mavuzlar, shuningdek, qozilik uchun kerakli vasiqa hujjati namunalari ham o'rin olgan [Mullo Xolmuhammad, Jung, 87 va 89; 52 va 53; 94 va 95; 114 va 115; 104, 123 va 124 va boshq].

Qo'qon xonligi hukmdori Xudoyorxon (boshq. yillar: 1845–1858; 1862–1863; 1865–1875) kutubxonasidan chiqqan va keyinchalik vaqf qilingan jung to'plamini Namangandagi Ahmad Ubaydulloh xonadoni shaxsiy kolleksiyasida uchratdik. Mazkur jung ham yuqoridagilar kabi "Muxtasar al-viqoya" asari matniga ko'plab qo'shimcha masalalarni kiritib yozilgan. Qo'qon xonligi junglarida Buxoro va Xiva xonliklari junglari kabi ko'plab fiqhiy asarlardan iqtiboslar keltirilgan, ular mavzularga qarab tartiblablangan. Shuningdek, jungda asosiy fiqhiy mavzudan tashqari, ijtimoiy-diniy masalalar bilan bog'liq turli mavzudagi matnlar ham uchraydi.

Xulosa

Jung turkumidagi qo'lyozma to'plamlar Osiyoning g'arbiy, janubiy, va markaziy qismlarida keng tarqalgan. O'rta asr (XVII–XVIII) lug'atlarida bu so'z ta'riflanganda, u asosan she'riy to'plamlarga nisbatan qo'llangan.

XVII asrdan boshlab Eron hududida yaratilgan junglar ko'proq adabiyotga bag'ishlagan. Ulardan shoirlarning forsiy va arab tillarida nasr va nazm yo'lida bitilgan turli she'rlaridan parchalar o'rin olgan. Kichik Osiyoda (Turkiya) jung to'plamlari adabiy mavzular qatorida xalq og'zaki ijodidan iborat bo'lgan hikoya va masal, matallardan iborat majmualar uchun ham qo'llanilgan.

Markaziy Osiyoda yaratilgan junglar – XVII asrdan boshlab to XX asr boshlarigacha asosan, fiqhiy mazmundagi matnlar, xususan, asar matni, sharh va fatvolar hamda qozilik hujjatlaridan *rivoyat*, *vasiqa*, *mahzar*, *xatt* va *sijillot*larni o'zida qamrab olgan to'plamlardir. Ularning tuzuvchilari ijtimoiy hayotda huquqiy masalalar bilan bevosita shug'ullangan qozi, a'lam va muftiylardir.

Adabiyotlar

Abdurashid al-Husayniy al-Madaniy Tattaviy. *Farhangi Rashidiy*. Qo'lyozma: O'zRFASHI, № 3446.

- Âkif Aydin M. 2003. *Mecelle-i ahkam-i adliyye. Islam Ansiklopedisi* 28: 231–235.
- Акимущин, О.Ф. 2004. О функциях поэтических сборников и альбомов в средневековой персидской и таджикской словесности. *Средневековый Иран: Культура, история, филология*. Санкт-Петербург: Наука.
- Асланов, М.Г. 1966. *Афганско-русский словарь (нушты)*. Москва: Советская энциклопедия.
- A. De Biberstein Kazimirski. 1860. *Dictionaire Arabe-Français*. T. I. Paris: Maisonneuve et cie editeurs.
- Bayāz-i Tāj al-Dīn Aḥmad Vazīr. *Jild 1*. Tehron, nashriyoti va yili ko'rsatilmagan.
- Dehudo, A.A. 1959. *Lugatnome*. Jild 16. Tehron: Intishorot-i Donishgohi Tehron.
- DENĀ. 1392/2013. *Fihristvāra-ye Dast-nevešteh-hā-ye Irān*. Vol. III. Tehran: Kitābkhāne-ye Mūze va Markaz-e Asnād-e Majles-i Shūrā-ye Islāmī.
- Doerfer, G. 1967. *Türkische und mongolische elemente im neupersischen*. Band III. Wiesbaden: Franz Steiner Verlag GMBH.
- Doğan Kaya. 2007. *Ansiklopedik Türk Halk Edebiyatı Terimleri Sözlüğü*. Ankara: Akçağ Yayınları.
- Durand-Guédy D., Paul J. 2023. Introduction. In *Personal Manuscripts: Copying, Drafting, Taking Notes*. Berlin, Boston: Walter de Gruyter.
- G'ulomulloh Behikhan Siddiqiy al-Honsuviy. *Ashhar al-lug'at*. Qo'lyozma: O'zRFASHI, № 424.
- Jamol Muhammad ibn Qutb Olim Jandiy. *Farhang Jamoliy*. Qo'lyozma: O'zRFASHI № 12120.
- Jung. Qo'lyozmalar: Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi fondi, №№ 6, 75, 27822, 10838/II.
- Jung. Qo'lyozmalar: Samarqand davlat Universiteti kutubxonasi, №№ 1608341, 87555, 87884, 392112, 1260051.
- Jung. Qo'lyozmalar: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Manbalar xazinasi, №№ 251/I, 261/II, 255/X.
- Jung. Qo'lyozmalar: O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasi qo'lyozmalar, №№ 1134; 544–45; 559; 583; 597; 636; 643; 717; 727; 745; 836.
- Jung. Qo'lyozma: O'zbekistondagi Islom sivilizatsiya markazi kutubxonasi, № 16.
- Jung ma'a *Muxtasar al-viqoya*. Litografiya: O'zR FA SHI, № 6550. Noshiri: Mullo Muhammadiy Mahdum. Buxoro-Kogon, 1327/1909.
- Mir Rabi' ibn Mir Niyozxo'ja Husayniy. *Risolai Rahmoniya*. Qo'lyozma: O'zRFASHI, № 9060/XII.
- Muhammad Ma'ruf ibn Mulla Orif ibn Mulla Poyondiy al-Xustiy. *al-Ma'mulot al-mashhuriya*. Qo'lyozma: O'zRFASHI, № 6142.
- Muhammad Rasul a'lam. *Jung*. Qo'lyozma: O'zRFASHI, № 8470, 8412.
- Muhammad Sharif al-Buxoriy. *Jung ma'a Muxtasar al-viqoya*. Qo'lyozma: O'zRFASHI, № 10727.

- Muhammad Husayn. *Burhon qoti'*. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 2121.
- Muhammad Ma'ruf ibn Mulla 'Arif ibn Mulla Poyande Muhammad al-Xustiy. *Ma'mulot al-mashhuriya*. Qo'lyozma: O'zRFASHI, № 6142.
- Muftiy Charub. *Jungi*. Qo'lyozma: Manisa viloyati xalq kutubxonasi (Turkiya), № 7867.
- Qozi Ibadulloh ibn Xoja Orifiy al-Buxoriy. *Jomi' al-ma'mulot (Jung)*. Qo'lyozma: O'zRFASHI, № 6196.
- Sharaf ad-din 'Ali Yazdiy. *Munshaot*. Qo'lyozma: Istanbuldagi Topqopi saroyi muzeyi kutubxonasi, R. 1019. V. 57b–61b.
- Erkinov, A.S. 2024. Qo'lyozma bayozlarga oid ayrim mulohazalar. *Oltin bitiglar* 2: 4–27.
- Fankha. 1392/2013. *Fihristgan-e nushkha-haye khatti-ye Iran*. Vol. X. Tehran: Kitābkhāne-ye Mūze va Markaz-e Asnād-e Majles-i Shūrā-ye Islāmī.
- Фозилов, Э. И. 1983. *Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати*. Т. I. Тошкент: Фан.
- Гаффаров, М.А. 1974. *Персидско-русский словарь*. Москва: Наука.
- Гуломов, С. 2012. О некоторых подлинных документах из коллекции рукописей. *History and Culture of Central Asia*. Tokyo.
- Haji Khalifa. 1845. *Lexicon bibliographicum et encyclopaedicum*. T. IV. London.
- Isogay, K. 2001. Seven Fatwa Documents from Early 20th Century Samarqand. *Annals of Japan Association for Middle East Studies* 27 (1): 259–282.
- Karaman, H. 2012. *Islam hukuk tarihi*. İstanbul: İz Yayıncılık.
- Karahasanoglu C. 2011. Mecelle'nin yürürlüğe girişi ve Türk hukuk tarihi bakımından önemi. *Ankara Üniversitesi Dergisi* 2: 93–123.
- Mukhammadaminov S. <https://ifeac.hypotheses.org/3217/20.02.2026>.
- Муминов, А. 2021. *Книжное собрание на арабском шрифте*. Nur-Sultan and Istanbul.
- Мухаммадаминов, С. 2021. *Джонги как важные источники по изучению истории права*. IRCICA Proceedings. Istanbul.
- Персидско-русский словарь*. 1970. Москва: Советская энциклопедия.
- Sayyed 'Alī Mīrāfazlī. 2015. *Jung-i Rubā'ī*. Tehran: Soḥan.
- SVR. 1957. *Собрания восточных рукописей*. T. IV. Ташкент: Фан.
- Orhan Şaik Gökyay. 1993. *Cönk. İslâm Ansiklopedisi* 8. Istanbul.
- Pickett, J. 2020. *Polymaths of Islam: Power and Networks of Knowledge in Central Asia*. Ithaca: Cornell University Press.
- Щеглова, О.П. 1975. *Каталог литографированных книг на персидском языке*. Москва: Наука.
- Ягелло, И.Д. 1910. *Полный персидско-арабско-русский словарь*. Ташкент.

The Genesis and Regional Features of Jong Collections: From Literary Anthology to Compendium of Fatwas

Saidakbar Muhammadaminov¹

Abstract

This article examines *jung* collections, a widely distributed type of manuscript compilation within the Islamic manuscript tradition. In order to clarify the lexical and terminological meanings of the term *jung*, dictionaries compiled from the medieval period to the present day have been analyzed. The geographical distribution and distinctive features of manuscript collections belonging to this category have been investigated through catalogues of major manuscript repositories worldwide, revealing that such collections were particularly widespread in the Middle East and Asia Minor.

The repertoire of *jung* manuscripts preserved in Iranian collections consists predominantly of texts in Persian and Arabic, with a smaller number of works in Turkic and Urdu languages. These compilations mainly contain literary works, although a limited number of manuscripts devoted to religious subjects are also encountered. In Turkish manuscript collections, with only a few exceptions, the repertoire of *jungs* is composed primarily of poetic and verse texts.

The main focus of the article is on *jung* manuscript collections preserved in Central Asia. It is demonstrated that their contents differ significantly from those found in other regions, consisting almost entirely of legal opinions (*fatwas*) and documentary records related to Islamic jurisprudence. Such *jungs* were generally compiled by qadis and muftis. One of the principal criteria for the formation of these collections was the inclusion of *masā'il-i ma'mūla* – legal rulings that were actively applied in judicial practice.

The manuscripts of this category preserved in the holdings of the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic

¹ Saidakbar A. Muhammadaminov – PhD in History, Senior Research fellow Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni of the Academy of Science of the Republic of Uzbekistan.

E-mail: saidakbar.orient@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-6022-4335

For citation: Muhammadaminov, S.A. 2026. "The Genesis and Regional Features of Jong Collections: From Literary Anthology to Compendium of Fatwas". *Golden Scripts* 1: 4 – 22.

of Uzbekistan are associated with the Khanates of Bukhara, Khiva, and Kokand. The article analyzes their distinctive characteristics and highlights their significance for the study of the legal and intellectual history of Central Asia.

Key words: *Jung collections, catalog, Turkey, Iran, Central Asia, fiqh, fatwa, sample of a riwayat document, manual, khanates of Bukhara, Xiva and Kakand.*

References

- Abdurashid al-Husayniy al-Madaniy Tattaviy. *Farhangi Rashidiy*. Qo'lyozma: O'zRFASHI, № 3446.
- Âkif Aydin M. 2003. *Mecelle-i ahkam-i adliyye. Islam Ansiklopedisi* 28: 231–235.
- Akimushkin, O.F. 2004. O funktsiyax poeticheskix sbornikov i albomov v srednevekovoy persidskoy i tadzhikskoy slovesnosti. *Srednevekovyy Iran: Kultura, istoriya, filologiya*. Sankt-Peterburg: Nauka.
- Aslanov, M.G. 1966. *Afgansko-russkiy slovar (pushtu)*. Moskva: Sovetskaya ensiklopediya.
- A. De Biberstein Kazimirski. 1860. *Dictionnaire Arabe-Français*. T. I. Paris: Maisonneuve et cie editeurs.
- Bayāz-i Tāj al-Dīn Aḥmad Vazīr. *Jild 1*. Tehron, nashriyoti va yili ko'rsatilmagan.
- Dehudo, A.A. 1959. *Lugatnome*. Jild 16. Tehron: Intishorot-i Donishgohi Tehron.
- DENĀ. 1392/2013. *Fihristvāra-ye Dast-nevesteh-hā-ye Irān*. Vol. III. Tehran: Kitābkhāne-ye Mūze va Markaz-e Asnād-e Majles-i Shūrā-ye Islāmī.
- Doerfer, G. 1967. *Türkische und mongolische elemente im neupersischen*. Band III. Wiesbaden: Franz Steiner Verlag GMBH.
- Doğan Kaya. 2007. *Ansiklopedik Türk Halk Edebiyatı Terimleri Sözlüğü*. Ankara: Akçağ Yayınları.
- Durand-Guédy D., Paul J. 2023. Introduction. In *Personal Manuscripts: Copying, Drafting, Taking Notes*. Berlin, Boston: Walter de Gruyter.
- G'ulomulloh Behikhan Siddiqiy al-Honsuviy. *Ashhar al-lug'at*. Qo'lyozma: O'zRFASHI, № 424.
- Jamol Muhammad ibn Qutb Olim Jandiy. *Farhang Jamoliy*. Qo'lyozma: O'zRFASHI № 12120.
- Jung. Qo'lyozmalar: Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi fondi, №№ 6, 75, 27822, 10838/II.
- Jung. Qo'lyozmalar: Samarqand davlat Universiteti kutubxonasi, №№ 1608341, 87555, 87884, 392112, 1260051.
- Jung. Qo'lyozmalar: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Manbalar

- xazinası, №№ 251/I, 261/II, 255/X.
- Jung. Qo'lyozmalar: O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasi qo'lyozmalar, №№ 1134; 544-45; 559; 583; 597; 636; 643; 717; 727; 745; 836.
- Jung. Qo'lyozma: O'zbekistondagi Islom sivilizatsiya markazi kutubxonasi, № 16.
- Jung ma'a *Muxtasar al-viqoya*. Litografiya: O'zR FA SHI, № 6550. Noshiri: Mullo Muhammadiy Mahdum. Buxoro-Kogon, 1327/1909.
- Mir Rabi' ibn Mir Niyozxo'ja Husayniy. *Risoi Rahmoniya*. Qo'lyozma: O'zRFASHI, № 9060/XII.
- Muhammad Ma'ruf ibn Mulla Orif ibn Mulla Poyondiy al-Xustiy. *al-Ma'mulot al-mashhuriya*. Qo'lyozma: O'zRFASHI, № 6142.
- Muhammad Rasul a'lam. *Jung*. Qo'lyozma: O'zRFASHI, № 8470, 8412.
- Muhammad Sharif al-Buxoriy. *Jung ma'a Muxtasar al-viqoya*. Qo'lyozma: O'zRFASHI, № 10727.
- Muhammad Husayn. *Burhon qoti'*. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 2121.
- Muhammad Ma'ruf ibn Mulla 'Arif ibn Mulla Poyande Muhammad al-Xustiy. *Ma'mulot al-mashhuriya*. Qo'lyozma: O'zRFASHI, № 6142.
- Muftiy Charub. *Jungi*. Qo'lyozma: Manisa viloyati xalq kutubxonasi (Turkiya), № 7867.
- Qozi Ibadulloh ibn Xoja Orifiy al-Buxoriy. *Jomi' al-ma'mulot (Jung)*. Qo'lyozma: O'zRFASHI, № 6196.
- Sharaf ad-din 'Ali Yazdiy. *Munshaot*. Qo'lyozma: Istanbuldagi Topqopi saroyi muzeyi kutubxonasi, R. 1019. V. 57b-61b.
- Erkinov, A.S. 2024. "Qo'lyozma bayozlarga oid ayrim mulohazalar". *Oltin bitiglar* 2: 4-27.
- Fankha. 1392/2013. *Fihristgan-e nushkha-haye khatti-ye Iran*. Vol. X. Tehran: Kitābkhāne-ye Mūze va Markaz-e Asnād-e Majles-i Shūrā-ye Islāmī.
- Fozilov, E. I. 1983. *Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati*. T. I. Toshkent: Fan.
- Gaffarov, M.A. 1974. *Persidsko-russkiy slovar*. Moskva: Nauka.
- Gulomov, S. 2012. O nekotorig podlinnix dokumentax iz kolleksii rukopisey. *History and Culture of Central Asia*. Tokyo.
- Haji Khalifa. 1845. *Lexicon bibliographicum et encyclopaedicum*. T. IV. London.
- Isogay, K. 2001. Seven Fatwa Documents from Early 20th Century Samarqand. *Annals of Japan Association for Middle East Studies* 27 (1): 259-282.
- Karaman, H. 2012. *Islam hukuk tarihi*. İstanbul: İz Yayıncılık.
- Karahasanoğlu C. 2011. Mecelle'nin yürürlüğe girişi ve Türk hukuk tarihi bakımından önemi. *Ankara Üniversitesi Dergisi* 2: 93-123.
- Mukhammadaminov S. <https://ifeac.hypotheses.org/3217/20.02.2026>.
- Muminov, A. 2021. *Knijnoe sobranie na arabskom shrifte*. Nur-Sultan and

Istanbul.

Muxammadaminov, S. 2021. *Djongi kak vajnie istochniki po izucheniyu istorii prava*. IRCICA Proceedings. Istanbul.

Persidsko-russkiy slovar. 1970. Moskva: Sovetskaya ensiklopediya.

Sayyed ‘Alī Mīrāfazlī. 2015. *Jung-i Rubā‘ī*. Tehran: Soḥan.

SVR. 1957. *Sobraniya vostochnykh rukopisey*. T. IV. Tashkent: Fan.

Orhan Şaik Gökyay. 1993. *Cönk*. İslâm Ansiklopedisi 8. Istanbul.

Pickett, J. 2020. *Polymaths of Islam: Power and Networks of Knowledge in Central Asia*. Ithaca: Cornell University Press.

Sheglova, O.P. 1975. *Katalog litografirovannykh knig na persidskom yazike*. Moskva: Nauka.

Yagello, I.D. 1910. *Polnyy persidsko-arabsko-russkiy slovar*. Tashkent.